

# **Besh\_tashabbus\_mahallada**



## **Besh\_tashabbus\_mahallada**

Xabaringiz bor 13-dekabrb kuni Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinosari Qahramon Qo'chqorovich Qur'onboev va Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullaevlar yoshlar bilan uchrashuv o'tkazgan edi. Uchrashuv davomida yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalaridan kelib chiqib "Yoshlar forumi-2021" doirasida mahallalarda yoshlar o'tasida turli musobaqa va tanlovlardan o'tkazilishi belgilangan edi. Termiz shahrida forum doirasida belgilangan musobaqa va ko'rik-tanlovlardan mahallalarda yuqori saviyada tashkil etildi.

"O'zbekiston yoshlar forumi-2021" doirasida "Besh tashabbus - mahallada" shiori ostida Termiz shahar IIB boshlig'i, 3-sektor rahbari sovrini uchun "ZAKOVAT" intellektual musobaqasining final bosqichi o'tkazildi.

Bugun, 18-dekabrb kuni viloyat Qo'g'irchoq teatri binosida Termiz shahar 3-sektor hududida joylashgan mahallalarning har biridan finalga chiqqan jamoalar o'tasida bilimlar bellashuvining final bosqichi bo'lib o'tdi. Qizg'in baxs va munozaralarga boy bo'lgan o'yin yakunida;

"Majnuntol" mahallasining "Omadlilar" jamoasi 1-o'rin, "Eski shahar" mahallasining "Kelajak liderlari" jamoasi 2-o'rin va "Amu sohillari" mahallasining "Everest" jamoasi 3-o'rinni egallahdi.

G'olib jamoalarning har bir a'zosiga 1-o'ringa kompyuter jamlanmasi, 2-o'ringa planchet va 3-o'rin uchun badiiy kitoblar jamlanmasi va diplomlar bilan taqdirlandilar.



